BUXORO VILOYAT
STATISTIKA BOSHQARMASI

# BUXORO VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI

*2021- YIL YANVAR-MAY*
*(DASTLABKI MA'LUMOT)*

*2021- YIL YANVAR-MAY*



# Buxoro viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

*(2021- yil yanvar-may)*







Sanoat statistikasi bo‘limi
Tel.: 65-220-83-06

Dastlabki ma’lumotlar bo‘yicha 2021- yilning yanvar-may oylarida viloyat korxonalari tomonidan 7113,1 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2020- yilning yanvar-may oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 93,9 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to‘g‘ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (95,2 %)ni tashkil etdi.







***B***–*Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash,* ***C***-*Ishlab chiqaradigan sanoat* ***D***-*Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash,* ***E***-*Suv bilan ta’minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish.*

**Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI*** *% da*







Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi pasayishining asosiy omili bo‘lib, tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida - 38,1 % ga hamda suv bilan ta‘minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilishning - 12,7 % ga pasayishi kuzatildi.

***Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi** *ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o‘zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko‘rsatkichdir.*

## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati







Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2021- yilning yanvar-may oyida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 78,9 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,1 % ini tashkil etdi.

### Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, % da







## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

**O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da**

| Oltingugurt | Shag‘al | Qazib olish xizmatlari |
|---|---|---|
|  |  |  |

## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-may | 2021- yil yanvar-may | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| Oltingugurt , t. | 568,0 | 361,0 | -207,0 |
| Shag‘al , t. | 15259,0 | 0 | -15259,0 |
| Neft va tabiiy gaz qazib olish bilan bog‘liq burg‘ilash xizmatlari, mln. so‘m. | 81182,3 | 46788,1 | -34394,2 |

## Ishlab chiqaradigan sanoat




2021- yilning yanvar-may oyida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 6775,0 mlrd. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 95,2 % ini tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi**, *% da*



O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,1 % ni (2020- yilning yanvar-may oylarida – 0 %), o‘rta-yuqori texnologiyali – 1,7 % (1,4 %), o‘rta-quyi texnologiyali – 54,7 % (59,3 %) va quyi texnologiyalisi – 43,5 % (39,3 %) ni tashkil etdi.




Jami sanoat tarkibida koks va neftni qayta ishlash mahsulotlarini ishlab chiqarish sohasining ulushi – 43,9 % (2020- yil yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi – 82,9 %), to‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarish sohasining ulushi – 23,7 % (2020- yil yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi – 110,5 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 16,8 % (2020- yil yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi – 108,2 %), boshqa nometall mineral mahsulotlarni ishlab chiqarishning ulushi – 5,2 % (2020- yil yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi – 124,6 %) ni tashkil etdi.

## Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o‘sish sur’ati

2021- yilning yanvar-may oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 356,4 ming tonna avtomobil benzini (2020- yilning yanvar-may oylariga nisbatan 8,2 % ga o‘sgan), 9,5 ming tonna kalava ip (19,3 %), 624,8 ming litr aroq mahsulotlari (15,8 %) ishlab chiqarilib, yuqori o‘sish sur’atlari kuzatildi.

### O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da

**Dizel yoqilg‘isi**




**Avtomobil benzini**




**Mazut**




**O‘simlik yog‘i (tozalangan)**




**Yirik shoxli qoramollar uchun tayyor ozuqa**




**Yumshoq bug‘doy va spelta uni**




**Likyorlar**




**Aroq**




**Uzum vinosi**




**Paxta linti**




**Paxta chigiti**




**Paxta tolasi**



## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-may | 2021- yil yanvar-may | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| Mazut, ming t. | 33,3 | 35,3 | 2,0 |
| O‘simlik yog‘i (tozalangan), t. | 6215,7 | 5615,2 | -600,5 |
| Paxta,tolasi, t. | 53482,6 | 45946,0 | -7536,6 |
| Yumshoq bug‘doy va spelta uni, t. | 39330,8 | 36663,0 | -2667,8 |
| Quyish uchun tayyor beton,t. | 16653,2 | 3895,7 | -12757,5 |
| Avtomobil benzini,ming t. | 329,3 | 356,4 | 27,1 |
| Paxta chigiti, t. | 81907,8 | 71597,0 | -10310,8 |
| Yig‘ma konstruksiyalar elementlari, t. | 9374,7 | 14766,8 | 5392,1 |
| Dizel yoqilg‘isi, ming t. | 301,3 | 183,3 | -118,0 |

## Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish

*(2021- yil yanvar-may)*

**FHI *% da***

| | |
|---|---|
| **111,7%** | **2019- y.** |
| **127,6%** | **2020- y.** |
| **82,9 %** | **2021- y.** |

2020- yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko‘ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari sanoatdagi ulushi 51,5 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 27,6 % ga o‘sgan.

Shuningdek, 2021- yilning yanvar-may oylarida sanoatdagi ulushi 43,9 % ni, fizik hajm indeksi 17,1 % ga kamayib, ishlab chiqarish hajmi 3124,2 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

## To‘qimachilik, kiyim va teri mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

*(2021- yil yanvar-may)*

Jami sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-may oylarida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 22,8 % ni tashkil etgan bo‘lsa, uning fizik hajm indeksi 115,3 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2021- yilning yanvar-may oylarida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 23,7 % ni, fizik hajm indeksi 10,5 % ga o‘sgan bo‘lsa, ishlab chiqarish hajmi 1687,7 mlrd. so‘mni tashkil etdi.




## Oziq-ovqat va ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

*(2021- yil yanvar-may)*

Jami sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-may oylarida oziq-ovqat va ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 14,1 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 110,6 % ni tashkil etgan bo‘lsa,

2021- yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko‘ra, oziq-ovqat va ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 16,8 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 8,2 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 1195,0 mlrd. so‘mni tashkil etdi.



## Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

*(2021- yil yanvar-may)*

Jami sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-may oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 3,3 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 16,0 % ga kamaygan boʻlsa, 2021- yilning yanvar-may oylari yakunlariga koʻra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning sanoat tarkibidagi ulushi 5,2 % ni tashkil etdi, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 24,6 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 371,6 mlrd. soʻmni tashkil etdi.




## Kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoati

*(2021- yil yanvar-may)*

Jami sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-may oylarida ushbu yoʻnalishda mahsulot ishlab chiqarishning ulushi 1,5 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 17,8 % ga kamaygan boʻlsa, 2021- yilning yanvar-may oylari yakunlariga koʻra, shu turdagi mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 2,0 % ni tashkil etdi, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 42,4 % ga kamaydi va ishlab chiqarish hajmi 139,8 mlrd. soʻmni tashkil etdi.



# Elektr, gaz, bug‘ bilan taminlash va havoni konditsiyalash

*2021- yilning yanvar-may oylarida*







Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 197,6 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,8 % ini) tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-may oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta’minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 17,1 % ga oshganligi kuzatildi.

**Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, *% da***







## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-may | 2021- yil yanvar-may | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Elektroenergiya,** *mln.kVt.s* | 2,6 | 3,0 | 0,4 |
| **Issiqlik energiyasi,** *ming gkal* | 441,8 | 464,6 | 22,8 |

## Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish




Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 61,6 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,9 % ini) tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, *% da***




| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-may | 2021- yil yanvar-may | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Oqova suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar,** *mln.so‘m* | 3921,9 | 7637,1 | 3715,2 |
| **Axlat o‘ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo‘shatish, tozalash va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar,** *mln.so‘m* | 153,0 | 203,5 | 50,5 |

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan oqova suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar 94,7 % ga oshganligi kuzatildi.

## Iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2812,0 mlrd. so‘mni tashkil etdi va 2020- yilning mos davriga nisbatan 22,0 % ga oshdi, uning jami sanoatdagi ulushi 39,5 % ni tashkil etdi.




Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 2,2 % (2020- yil yanvar-may oylarida 2,2 %)ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qorovulbozor tumaniga to‘g‘ri kelib, 20,9 % ni, shuningdek, Buxoro shahri 19,6% ni, G‘ijduvon tumani 11,0 % ni, Jondor tumani 8,5 % ni, Kogon tumani 6,8 % ni  tashkil etdi.

Shuningdek, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida viloyat o‘sish sur’ati (122,0 %) darajasidan yuqori ko‘rsatkich Kogon (2,0 m.), tumanida, Buxoro shahri (143,0 %) va Olot (141,0 %),Shofirkon (129,6 %) hamda Jondor (123,9 %) tumanlarida qayd etildi.

## Hududlar bo‘yicha iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*2021- yilning yanvar-may oylarida*

| Hudud | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Buxoro viloyati | 2812,0 | 100,0 | 122,0 |
| Olot | 55,6 | 2,0 | 141,0 |
| Peshku | 81,7 | 2,9 | 116,3 |
| Buxoro | 143,1 | 5,1 | 107,6 |
| Romitan | 96,3 | 3,4 | 104,2 |
| Vobkent | 127,0 | 4,5 | 107,8 |
| Jondor | 239,7 | 8,5 | 123,9 |
| G‘ijduvon | 308,7 | 11,0 | 114,8 |
| Shofirkon | 149,0 | 5,3 | 129,6 |
| Kogon | 189,5 | 6,8 | 2,0 m. |
| Buxoro sh. | 552,0 | 19,6 | 143,0 |
| Qorako‘l | 123,3 | 4,4 | 100,0 |
| Kogon sh. | 157,8 | 5,6 | 118,7 |
| Qorovulbozor | 588,3 | 20,9 | 109,1 |

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qorovulbozor tumaniga to‘g‘ri kelib, 32,4 % ni, shuningdek Buxoro shahri 20,8 % ni, G‘ijduvon tumani 11,0 % ni hamda Kogon tumani 5,6 %,Vobkent tumani 5,1 %, ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida yuqori ko‘rsatkich Olot (179,9 %), Shofirkon (166,8 %), Kogon (153,9 %) tumanlari va Buxoro shahrida (162,2 %) qayd etildi.

## Hududlar bo‘yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*2021- yilning yanvar-may oylarida*

| Hudud | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Buxoro viloyati | 1791,3 | 100,0 | 127,2 |
| Olot | 32,3 | 1,8 | 179,9 |
| Peshku | 33,6 | 1,9 | 115,1 |
| Buxoro | 72,5 | 4,0 | 105,7 |
| Romitan | 51,6 | 2,9 | 103,4 |
| Vobkent | 91,2 | 5,1 | 110,1 |
| Jondor | 83,8 | 4,7 | 137,3 |
| G‘ijduvon | 196,9 | 11,0 | 139,3 |
| Shofirkon | 75,3 | 4,2 | 166,8 |
| Kogon | 99,6 | 5,6 | 153,9 |
| Buxoro sh. | 372,8 | 20,8 | 162,2 |
| Qorako‘l | 37,9 | 2,1 | 89,8 |
| Kogon sh. | 62,7 | 3,5 | 149,2 |
| Qorovulbozor | 581,1 | 32,4 | 108,9 |

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Buxoro shahriga to‘g‘ri kelib, 17,6 % ni, shuningdek, Jondor tumani 15,3 % ni, G‘ijduvon tumanida 10,9 % ni, Kogon shahrida esa 9,3 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida eng yuqori ko‘rsatkich Kogon tumanida (3,2 m.) , Jondor tumanida (117,7 %) hamda Peshku tumanida (117,2 %) qayd etildi.

## Hududlar bo‘yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*2021- yilning yanvar-may oylarida*

| Hudud | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Buxoro viloyati | 1020,7 | 100,0 | 113,9 |
| Olot | 23,3 | 2,3 | 108,5 |
| Peshku | 48,1 | 4,7 | 117,2 |
| Buxoro | 70,6 | 6,9 | 109,5 |
| Romitan | 44,7 | 4,4 | 105,1 |
| Vobkent | 35,8 | 3,5 | 102,2 |
| Jondor | 155,9 | 15,3 | 117,7 |
| G‘ijduvon | 111,8 | 10,9 | 87,6 |
| Shofirkon | 73,7 | 7,2 | 105,5 |
| Kogon | 89,9 | 8,8 | 3,2 m. |
| Buxoro sh. | 179,2 | 17,6 | 114,7 |
| Qorako‘l | 85,4 | 8,4 | 105,3 |
| Kogon sh. | 95,1 | 9,3 | 104,6 |
| Qorovulbozor | 7,2 | 0,7 | 123,4 |

## Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

*2021- yilning yanvar-may oylarida*

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 713,9 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 10,0 % ni tashkil etdi.

## Buxoro viloyati hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

*2021- yil yanvar-may oylarida*

| | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Buxoro viloyati * | 7113,1 | 100,0 | 93,9 |
| Olot | 153,0 | 2,1 | 106,5 |
| Peshku | 160,6 | 2,3 | 103,7 |
| Buxoro | 158,1 | 2,2 | 103,4 |
| Romitan | 426,2 | 6,0 | 98,1 |
| Vobkent | 129,6 | 1,8 | 101,4 |
| Jondor | 290,3 | 4,1 | 106,4 |
| G‘ijduvon | 518,6 | 7,3 | 100,4 |
| Shofirkon | 230,3 | 3,2 | 110,5 |
| Kogon | 374,8 | 5,3 | 114,5 |
| Buxoro sh. | 908,7 | 12,8 | 114,1 |
| Qorako‘l | 201,7 | 2,8 | 91,2 |
| Kogon sh. | 346,8 | 4,9 | 102,7 |
| Qorovulbozor | 3214,4 | 45,2 | 83,5 |

---

* *Hududlar bo‘yicha taqsimlanmagan ma'lumotlarni qo‘shgan holda*

**Buxoro viloyati hududlari kesimida ishlab chiqarish fizik hajm indeksi, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o‘sish sur’ati** *% da*




Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish Kogon tumanida (2020- yilning yanvar-may oylariga nisbatan 114,5 %), Buxoro shahrida (114,1 %), Shofirkon (110,5 %) va Olot (106,5 %) tumanlarida sezilarli darajada oshdi.

Viloyat sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarining o‘tgan yilning shu davriga nisbatan pasayish omili bolib Qorovulbozor (2020- yilning yanvar-may oylariga nisbatan 83,5 %) tumanida ishlab chiqarish hajmlarining kamayishi kuzatildi.

## Buxoro viloyati jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da

Viloyat sanoat ishlab chiqarishi hajmi tarkibida eng ko‘p ulush Qorovulbozor tumani (Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 45,2 % i), Buxoro shahri (12,8 %), G‘ijduvon tumani (7,3 %), Romitan tumani (6,0 %), Kogon tumani (5,3 %) hamda Kogon shahri (4,9 %) hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Eng past ko‘rsatkich esa Vobkent (1,8 %) hamda Olot (2,1 %) tumanlariga to‘g‘ri kelmoqda.






Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Qorovulbozor tumani (172817,0 ming so‘m), Kogon shahri (5630,5 ming so‘m) va Kogon tumani (4714,0 ming so‘m) o‘rtacha viloyat darajasi ko‘rsatkichidan (3648,7 ming so‘m) ancha yuqoriligini ko‘rsatmoqda.

Viloyat bo‘yicha aholi jon boshiga iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 1109,4 ming so‘m bo‘lgani holda, Qorovulbozor tumanida – 31627,9 ming so‘mni, Kogon shahrida – 2561,2 ming so‘mni, Kogon tumanida – 2383,3 ming so‘mni, Buxoro shahrida 1960,1 ming so‘mni tashkil etdi.

## Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari va iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

*2021- yil yanvar-may, ming so‘m*

| | Sanoat mahsulotlari | Iste’mol mahsulotlari |
|---|---|---|
| Buxoro viloyati | 3648,7 | 1442,4 |
| Olot | 1527,2 | 554,8 |
| Peshku | 1287,8 | 655,6 |
| Buxoro | 934,5 | 845,7 |
| Romitan | 2959,5 | 669,1 |
| Vobkent | 916,0 | 897,4 |
| Jondor | 1642,9 | 1356,5 |
| G‘ijduvon | 1686,5 | 1003,8 |
| Shofirkon | 1285,9 | 832,3 |
| Kogon | 4714,0 | 2383,3 |
| Buxoro sh. | 3226,7 | 1960,1 |
| Qorako‘l | 1220,4 | 745,9 |
| Kogon sh. | 5630,5 | 2561,2 |
| Qorovulbozor | 172817,0 | 31627,9 |

## **Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi**

*2021- yil yanvar-may, % da*

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2328,5 mlrd. so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 32,7 % ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Vobkent tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Jondor (100,0 %), Buxoro (99,8 %), Kogon (98,1 %), hamda Shofirkon (74,8 %) tumanlarida kuzatildi.






Viloyatimiz hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko‘rsatdiki, Qorovulbozor tumani (1,2 %) va Romitan tumani (26,5 %) sanoat ishlab chiqarish hajmidagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hudularda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

## Viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

*(2020- yil 1- iyun holatiga ko‘ra)*

Bugungi kunda viloyatda 4724 ta sanoat korxonalari faoliyat ko‘rsatmoqda, shundan 1284 tasi (faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 27,2 % i) Buxoro shahriga, 609 tasi (12,9 % i) G‘ijduvon tumaniga, 379 tasi (8,0 % i) Buxoro tumaniga, 365 tasi (7,7 % i) Kogon tumaniga, 331 tasi (7,0 % i) Jondor tumaniga, 316 tasi (6,7 % i) Romitan tumaniga, 299 tasi (6,3 % i) Shofirkon tumaniga to‘gri kelmoqda.




2020- yilning yanvar-may oylarida viloyatda 584 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 103 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi ulushi 17,6 %) Buxoro shahrida, 92 tasi (15,8 %) G‘ijduvon tumanida, 55 tasi (9,4 %) Shofirkon tumanida, 46 tasi (7,9 %) Romitan tumanida, 46 tasi (7,9 %) Buxoro tumanida tashkil etildi.